

# Yangi O'zbekistonda Davlat Boshqaruvini Yanada Takomillashtirish

*Meliyeva Nargiza Eshboyevna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida Davlat boshqaruvi va xalq - hokimiyatning birdan bir manbai ekanligi konstitutsiyada belgilab qo'yilgan davlat-huquqiy faoliyatning mazmuni konstitutsiyaviy tamoyillarga haqida, bugungi kunda sohani Davlat hokimiyatining xalq manfaatlarini ko'zlab ustivor faoliyatini yo'lga qo'yayotgani, shu bilan soha faoliyatini yangi bosqichlarga olib chiqishda qolinayotgan ishlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Elektron hukumat, Elektron hukumat, xalq – hokimiyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, MARKI” va UNIVACI, government, zamon talabi, tashkilot va fuqarolar, ma'muriy boshqaruvni.

Davlat boshqaruv organlarini ijro etuvchi hokimiyat tashkil qilib u O'zbekiston Respublikasi yagona davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i. Ijro etuvchi hokimiyat davlat boshqaruvi organlari tizimini tashkil etadi, ularga respublika hukumati, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, mahalliy ijro etuvchi organlar, davlat muassasalari va korxonalar kiradi. Ijro etuvchi hokimiyat davlat xizmati orqali amalga oshiriladi. Ya'ni davlat xizmati fuqarolarning davlat organlaridagi davlat boshqaruvini amalga oshirishga qaratilgan professional faoliyatidir. Bugungi kunda o'tgan yaqin tarixga nazar tashlar ekanmiz har sohada bo'lgani kabi davlat boshqarivuda ham rivojlanishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni parlamentga murojaat bilan chiqish chog'ida hukumatga davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirish vazifasini topshirdi.

“Ko'pgina vazirlik idoralar faoliyatida qaror qabul qilish haddan tashqari markazlashgan. Ularning vazifalari aniq belgilanmaganligi sababli ularning faoliyatlarida bir-birlarini takrorlash holatlari mavjud. Bundan tashqari, vazir o'rinbosarlari, o'rta bo'g'in rahbarlari mas'uliyatni o'z bo'yniga olmayapti, tashabbus ko'rsatmayapti. Nima uchun bunday bo'lyapti? Ularda bilim, ko'nikma va mas'uliyat hissi yo'q yoki korrupsiyaga berilgan”, — degan davlat rahbari, Bunday rahbarlar “aholi kutayotgan hayotiy muammolarni hal qilish o'rniga keraksiz qog'ozbozlik va natijasiz majlislar o'tkazish bilan ovora bo'lib qolmoqda”. Shavkat Mirziyoyevning fikricha, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish choralari hali ham ko'rilmayapti.

Shu sababli hukumatga ikki oy muddatda boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar va funksiyalarni, ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha hujjatlar loyihalarini tayyorlash vazifasi topshirildi. Bunda davlat boshqaruvi xodimlari sonini o'rtacha 15 foizgacha optimallashtirishni nazarda tutish zarur hisoblanadi.

Kelgusi yil oxiriga qadar elektron davlat xizmatlarini 60 taga ko'paytirib, ularni 300 taga, masofaviy xizmatlar ulushini esa kamida 60 foizga yetkazish zarur.

Prezident, shuningdek, joylarda muammolarni hal qilishda davlat organlarining mas'uliyati va javobgarligi kuchaytirilishini ta'kidladi. Kelasi yil boshidan har bir vazirlik o'z ishini tuman, shahar, qishloq va mahalla kesimida rejalashtiradi va tashkil etadi. **Vazirlar va ularning o'rinbosarlari faoliyatiga tuman, shahar, qishloq va mahallada amalda qanday o'zgarish bo'lganiga qarab baho beriladi.** Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar, o'zlarining quyi tizim rahbarlari va xodimlarini yangicha talablar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali ishlashga o'rgatish va malakasini muntazam oshirib borish uchun mas'ul bo'ladi. “Deputat va senatorlarni o'zlari saylangan hududdagi muammolar, tegishli vazirlik va hokimliklar tomonidan qay darajada hal etilayotganini doimiy o'rganib, nazorat qilib borishga chaqiraman”, — deb ta'kidlagan davlat rahbari.

Shavkat Mirziyoyev tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun xodimlar soni va maoshini hududning o'ziga xosligi va ish hajmidan kelib chiqib belgilash lozimligini ta'kidladi. Masalan, Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida 150 ming, Urgut tumanida 500 mingdan ortiq aholi yashaydi. Yoki Shayxontohur tumani aholisi qariyb 350 ming, Bektemirda esa 46 ming nafar. Lekin, ushbu tumanlarda boshqaruv xodimlari soni va ularning ish haqi bir-biridan katta farq qilmaydi.

Shu sohadagi rivojlanishlarga kata hissa qo'shgan ustuvor vazifalardan yana biri Davlat boshqaruvida “Elektron hukumat” tizimini joriy etishi bo'ldi desak, hech adashmagan bo'lamiz. Bu davlat boshqaruv organlari faoliyatini yangicha tashkil etish shakli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, tashkilot va fuqarolar uchun hukumat xizmatlaridan hamda davlat organlari faoliyati natijalari haqidagi ma'lumotlarni qulay tarzda va yuqori darajada tezkor olishni ta'minlashdir.

<sup>1</sup> DTPI o'qituvchi

Bu tarmoq quyidagilarga imkon yaratadi:

- aholi va tijoratga oson hamda tez xizmat ko'rsatishni;
- o'z o'ziga xizmat ko'rsatish jarayonlariga fuqarolar faol ishtirokini oshirishni;
- fuqarolarning texnologik savodxonlik darajasini oshirishni;
- mamlakatni boshqarish va rahbarlik qilish jarayonlarida saylovchilar faolligini oshirishni;
- fuqarolarning geografik joylashishidagi ta'sirining kamayishini.
- "Elektron hukumat" quyidagilarni:
  - samarali va kam xarajatli ma'muriyatni (ma'muriy boshqaruvni);
  - jamoatchilik va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tubdan o'zgarishini;
  - demokratiyaning takomillashuvi va hukumatning xalq oldidagi mas'uliyatini oshirishni ta'minlaydi.

Davlat boshqaruvida "Elektron hukumat"da erishiladigan eng katta yutuq – o'z uyi yoki ofisdan chiqmagan holda hujjatlarni rasmiylashtirish, shaxsiy kompyuterdan foydalanib, byurokratik to'siqlarni cheklagan va qog'ozbozliklarni kamaytirgan holda elektron to'lovlarni amalga oshirish. Sohoni hayotga joriy etish natijasida davlat boshqaruvi samaradorligi, shuningdek, hukumat faoliyatidagi shoffoflik oshadi, bu o'z navbatida davlat xizmati tarkibidagi korrupsiya darajasining keskin kamayishiga olib keladi. Fuqarolarda virtual tizim orqali hukumat axborot manbai va xizmat ko'rsatish bo'limlariga bog'lanish imkoniyati yuzaga keladi. Bugungi kunda davlat organlari va jamoatchilik joylariga yuzlab terminallar o'rnatilgan, bular orqali aholi davlat xizmatlari bilan batafsil tanishishi mumkin.

"Elektron hukumat" – g'oya, davlat asosiy vazifalari va xizmat turlarini elektron ko'rinishga o'tkazadi. "Elektron hukumat"ning jamoatchilik vazifasi – davlatning tijorat bilan, davlatning fuqaro bilan, davlatning ichki davlat osti organlari bilan o'zaro munosabatlaridir. Elektron hukumatning asosiy ichki modellari sifatida to'rtta munosabat qaraladi:

Zamonaviy xalqaro-huquqiy hujjatlarda, xususan, inson huquqlari bo'yicha Evropa sudida government iborasi davlatni ifodalash uchun ishlatiladi. Shunga o'xshash jumla "threebranches of government" hukumatning faqat ijro etish organi sifatida emas, balki uch tarmog'i: ijro etuvchi elektron hukumat, elektron parlament va elektron sud huquqi haqida fikr yuritiladi. "Elektron hukumat" elektron iqtisodiyotning sub'ekti hisoblanadi. "Elektron hukumat" axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, hukumatga fuqarolar murojaatini ta'minlaydi, samaradorlikni oshiradi va hisobotlar berib borilishini talab etadi. Bu, o'z navbatida, davlat xizmatchilari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangicha shakllanishi va o'zgarishiga olib keladi.

"Elektron hukumat" – elektron vositalar asosida ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish va tarqatish davlat boshqaruv tizimi. Elektron hukumat – ob'ektiv haqiqat bo'lib, axborot muhitida yuzaga keladigan elektron hukumat institutlari yaratilishi va rivojlanishida namoyon bo'ladi. Elektron hukumat institutlarining rivojlanishi zamon talabi hisoblanib, asosan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va farovon hayot kechirishlarini ta'minlashga qaratilgan. "Elektron hukumat" turli ko'rinishda elektron xo'jalik tarmoqlari asosida amalga joriy etib kelinmoqda. Bu, o'z navbatida, jamiyatning yangi tarzda nomoddiy mahsullarga (shaxsiy sifatlar, bilim va axborot) asoslanib, rivojlanishiga olib keladi. Ilmiy-texnik ishlarning echilishini inobatga olgan holda axborot jamiyatini shakllantirish uchun bir qator loyihalarni amalga oshirish lozim: kompyuter savodxonligini oshirish, infrastrukturani shakllantirish, elektron ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish, jumladan, elektron hukumat institutlarini yaratish loyihasi. "Elektron hukumat" konsepsiyasining joriy etilishi na faqat davlat apparati ishlari samaradorligini oshiradi, balki demokratiyaning tubdan yangi ko'rinishi raqamli demokratiya (digitaldemocracy) modeli shakllanishiga sharoit yaratadi. Fuqarolar online tizimida ovoz berish orqali mahalliy va davlat masalalarini echishda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishini ta'minlaydi. Masalan, turli partiyalarga mansub fuqarolarning siyosiy masalalarga taklif va tavsiyalarini elektron hukumat orqali bildirishlari mumkin.

Hukumat faoliyati samaradorligini oshirish uchun yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish g'oyasi yangi davlat menejmenti g'oyasi asosida olib borilayotgan ma'muriy faoliyatda reforma o'tkazish jarayonida 1990 yillarda yuzaga keldi. Lekin "elektron hukumat" iborasi keyinroq (e-government), 1997 yili AQSH milliy ilmiy fondi tashabbusi bilan yuzaga keldi. Bu yerda asosiy urg'u davlatning ommaviy boshqaruv organi tizimiga berilgan. Yangi davlat menejmenti asosida elektron hukumat dasturini amalga oshirish jarayonida ma'muriy o'zgarishlar g'oyasi tor ma'noda bo'lib qoldi, ommaviy boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq o'z ichiga olmadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotida yangi tendensiyalar globallashuv, tarmoq tuzilishi, kommunikatsiya inqilobi, bilimlar jamiyati yuzaga keldi. Yangi texnik vositalarni boshqaruv jarayonlariga tadbiq etish 1940 yillarning oxiri va 1950 yillar boshlariga to'g'ri keldi. 1951 yili tijoratda foydalanish uchun birinchi kompyuter yaratilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu "First Ferranti MARKI" va UNIVACI hisoblanadi. Bunday kompyuterlar aholini ro'yxatga olishda ishlatilgan. 1950 yillarning birinchi yarmidan kompyuterlardan ilmiy va texnik sohada, qisman tijorat va ommaviy boshqaruvda foydalanilgan. 1965 yillarga kelib Kongress siyosati va Prezident ma'muriyatida ma'lumotlarni qayta ishlashda kompyuterlardan foydalana boshlandi. Asosiy e'tibor elektron kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib, menejment faoliyati sarf-xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. 1966 yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'sha yillari AQSHda 2600 kompyuter mavjud bo'lib, ularda 71 ming mutaxassis faoliyat yuritgan. Kompyuterning yaratilishi boshqa texnologiyalar imkoniyatlariga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Kompyuterning asosiy imkoniyatlari jumlasiga: inson va sun'iy

yoʻldoshlarning koinotga uchishi, tibbiyot olami tadqiqotlaridagi yutuqlar, soliq tizimini boshqarish orqali davlat jamgʻarmalarini oshirish, ijtimoiy xavfsizlikni boshqarish, mudofaa sohasida logistik tizimni boshqarish, sugʻurta toʻlovlarini tezlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish, kam xarajatli yoʻllarni loyihalash va infrastrukturani yaratish kiradi. Qonunchilikka asosan kompyuterlardan davlat faoliyatida foydalanish uch tashkilot tomonidan amalga oshirila boshlandi: Bosh maʼmuriy xizmat, savdo vazirligi va Byudjet byurosi. 1970-80 yillarga kelib maʼlumotlarni uzatish va qayta ishlash texnologiyasi asosida kommunikatsion tarmoqlar yuzaga kela boshladi. SHaxsiy kompyuterlarning va ularga mos ravishda dasturiy vositalarning yaratilishi butunjahon axborot tarmogʻi va Internet yuzaga kelishiga sabab boʻldi.

Ikki yoʻnalish – AKTning rivojlanishi va ommaviy boshqaruv modeli 1990 yillarda maʼmuriy islohotlar oʻtkazilishini taqozo etdi. Natijada AQSHda «hukumatni yangilash» (Reinventing government) dasturi ishlab chiqildi. Buyuk Britaniyada 1994-96 yillarda elektron hukumatni joriy etish strategiyasi ishlab chiqildi. 1997 yilga kelib, Britaniyada konservativ hukumat tomonidan elektron hukumat xizmatlarini joriy etish boʻyicha bir qator loyihalar ishlab chiqildi. Hukumatning 1999 yilga kelib leyboristlar qoʻliga oʻtishi bilan hukumatni modernizatsiyalash dasturiga bir qator yangi gʻoyalar kiritilib, 2000 yil uni joriy etish dasturi - «Elektron hukumat»: axborot asosida ommaviy xizmat uchun strategik asos qabul qilindi. 1990 yillarga kelib, boshqa davlatlar ham hukumatni elektronlashtirish dasturini qabul qila boshladi. 1999 yil Evropa komissiyasi «Elektron Evropa yaratish initsiativasi (tashabbusi)» dasturini ishlab chiqdi.

“Elektron hukumat” quyidagi yoʻnalishlarda ishlarni amalga oshirishni koʻzda tutadi: davlat boshqaruvida AKTdan foydalanish sohasida standartlar va takliflarni shakllantirish, hukumat axborot tizimi integratsiyasi va AKT asosida tashkilotlararo axborot almashinuvi samaradorligini taʼminlash, AKT yordamida aholi va davlat boshqaruv organlari orasidagi oʻzaro bogʻlanish samaradorligini taʼminlash, davlat boshqaruv organlari faoliyatida axborot boshqaruv tizimini joriy etish, davlat boshqaruv organlari faoliyatini taʼminlash uchun namunaviy dasturiy-texnik yechimlarni toppish, chora-tadbirlar dasturlarini amalga oshirish jarayonlarini boshqarish.

Shunday qilib, yangi asrda “elektron hukumat” tizimining yaratilishi muhim voqea boʻlib, barcha davlatlarni qamrab olgan. Elektron hukumatning nazariy jihatlari uning amaliy tadbiri bilan birga, har bir mamlakatning milliy va oʻziga xos hususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlanib borishida namoyon boʻlmoqda.

Axborot, dasturiy va elektron texnik vositalarning rivojlanishi davlat boshqaruv jarayonlari hamda tuzilmasiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Avvaliga bu qarorlar qabul qilish jarayonida maʼlumotlardan foydalanish, yigʻish va qayta ishlash samaradorligini oshirishda, keyinchalik barcha davlat boshqaruv tizimlarini tashkil etish usullari va institutlari transformatsiyasida namoyon boʻlmoqda. Umuman olganda, elektron hukumat rivojlanishi elektron biznes va elektron tijoratning rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Davlat elektron vositalariga asoslanib, aholi va tijorat tashkilotlariga xizmat koʻrsatib keladi, hukumat tuzilmalari orasidagi oʻzaro bogʻlanishni takomillashtiradi. Bunda davlat faoliyatida umumiy maqsadga erishiladi: davlat va tashkilotlar oʻrtasida hamkorlik shakllari kengayadi hamda mustahkamlanadi; tashkilot va fuqarolarning ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi; faoliyatning sharoitlari oʻzgarishlariga tez va samarali moslashadi, aholi va tijorat tuzilmalariga xizmat koʻrsatish takomillashadi, xizmat koʻrsatish turlari oshib, narxi pasayadi, davlat boshqaruvida tashkilotlararo munosabatlarda samaradorlik oshadi, davlat boshqaruvida kadrlar samaradorligi oshadi, davlat boshqaruvida shaffoflik darajasi va davlat xizmatchilari masʼuliyati oshadi, xizmatchilar tashabbuslari ragʻbatlantiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni parlamentga murojaati
2. "Public Management: Old and New." Yoʻnalish.
3. Davlat boshqaruvining tamoyillari: kirish. Kuala-Lumpur: Karisma nashrlari. ISBN

#### **Internet saytlari:**

4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [www.zakon.uz](http://www.zakon.uz)
6. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
7. [parliament.gov.uz](http://parliament.gov.uz)